

AYBLOV VA TERGOV JARAYONIDAGI MA'NAVY JABRLANISH VA BU BORADAGI CHORA-TADBIRLAR

Jo'raqulov Davronjon Jahon o'g'li.

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoyat odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyat munosabatlarini yanada demokratlashtirish va yangilash, jamiyatni modernizasiya va isloh etish bosqichiga yetib keldi desak xato qilmagan bo'lamiz. Islohotlarning bosh maqsadi ham jamiyat a'zolarining farovon turmushlarini tashkil qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan uzviy bog'liqdir. Shubhasiz, jamiyat a'zolarining huquq va erkinliklarini ta'minlash tushunchasi nafaqat ularning muayyan ijtimoiy munosabatlardagi faolliklariga huquqiy shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi, shuningdek fuqarolarning turli g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilish tushunchasini ham o'z ichiga oladi.

Kalit So'Zlar: Ayblov xulosasi, ma'naviy zarar, fuqaroviy da'vo instituti, huquqiy munosabat, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, jinoyat prosessi

Barchamizga ma'lumki, har qanday jinoyat mulkiy, jismoniy yoki ma'naviy zarar yetkazadi. V.Pecherskiyning fikricha, jinoyat ishi materiallari, ayblovdan tashqari jinoyat natijasida yetkazilgan zararni qoplash hujjatlarini ham o'zida mujassam etadi. Bu amalda fuqaroviy da'vo instituti orqali amalga oshiriladi. Jinoyat prosessida fuqaroviy da'vo instituti jabrlanuvchining huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash kafolatlaridan biri hisoblanadi. Mazkur institut O'zRJPK 275-moddasiga muvofiq jabrlanuvchiga bevosita jinoyat tufayli yoki aqlinoraso shaxsning ijtimoiy xavfli qilmishi natijasida yetkazilgan mulkiy, jismoniy yoki ma'naviy ziyonni qoplashga qaratilgan. Jinoyat prosessida fuqaroviy da'voni ko'rib chiqish asosida yagona yuridik fakt yotadi. Jinoyat oqibatida mulkiy va ma'naviy zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoyatsodir etganligi uchun shaxsni jinoiy, fuqaroviy-huquqiy javobgarlikka tortilishi tushuniladi. Sud tomonidan jinoyat ishi va fuqaroviy da'voni birlashtirib ko'rilishi ish holatlarini to'liq, har tomonlama o'rganilishiga, shuningdek sud ishlarida aynan bir ishning qayta-qayta ko'rilishiga barham beradi.

Darhaqiqat, shaxsni ayblanuvchi sifatida faqat yetarli sharoitlar bo'lgan taqdirdagina olib kelish mumkin. Shaxsning aybdorligini ko'rsatish uchun ma'lum miqdordagi dalillar, ko'rsatuvlar yoki boshqa materiallar talab qilinadi. Tergovchi sudning ruxsati va ko'rsatmalarisiz mustaqil ravishda shaxsni ayblanuvchi deb tan olish to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday holda, "ayb" va "ayblash" tushunchalarini chalkashtirib yubormaslik kerak. Birinchi holda, sud jinoiy harakatni amalga oshirishda ishtirok etgan shaxsni topadi. Ayblov faqat shaxsning mumkin bo'lgan aybini ko'rsatadi. Ayblov xulosasini shakllantirish bilan birgalikda tergovchi jinoyat sodir etilgan vaqt, joy va sharoitlarni ko'rsatuvchi bir qator hujjatlarni rasmiylashtiradi. Ehtimol, noto'g'ri voqealarga aloqador bo'lgan shaxs javobgarlikka tortilishi mumkin.

Ayblov xulosasi chiqarilgandan so'ng prokuror ish boshlaydi. U tergovchi tomonidan to'plangan ish materiallarini diqqat bilan o'rganib chiqadi, so'ng xulosani tasdiqlaydi va sudga yuboradi. Bunday holda, agar prokuror yoki sud yig'ilgan dalillar miqdorini yetarli emas deb hisoblasa, dastlabki tergov muddati uzaytirilishi mumkin. Bunday holda, ayblanuvchi hibsdan qoladi va tergovchi shaxsning jinoiy harakatni sodir etishda ishtirok etganligini ko'rsatadigan yangi tafsilotlarni izlay boshlaydi. Fikrimcha, aynan mana shu o'rinda ushlangan shaxsning huquqlari poymol bo'lishining oldini olish maqsadida ushlab turish muddatini jinoyat sodir etishda gumon qilinayotgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgan vaqtdan boshlab emas, balki shaxs haqiqatda ushlangan vaqtdan boshlab hisoblash hamda shaxs amalda ushlangan paytdan boshlab, tegishli mansabdor shaxs u bilan bog'liq surishtiruv va tergov harakatlarini o'tkazishdan oldin himoyachi bilan xoli uchrashuvni ta'minlashi shartligi haqidagi qoida nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar xodimlari tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchidan ariza, tushuntirish yoki ko'rsatuvlar olishni mazkur jinoyat ishi yurituvda bo'lgan surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sudyaning yozma ruxsatiga asosan va faqat himoyachi ishtirokida amalga oshirilishi belgilandi (belgilangan tartibda himoyachidan voz kechilgan hollar bundan mustasno).

Xususan, o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxslarga oid jinoyat ishi bo'yicha, shuningdek qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash holatlarida himoyachining ishtirok etishi shartligi belgilandi. Jinoyat ishini sudga qadar yuritish bosqichida guvoh va jabrlanuvchini og'ir kasalligi yoki uzoq muddatga chet davlatga chiqib ketish zarurati tufayli kechroq so'roq qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, ularning ko'rsatuvlarini gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, jabrlanuvchi, guvoh, prokuror yoki advokatning iltimosnomasiga ko'ra sud tomonidan taraflarning ishtirokida oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovaniye) tartibi ham joriy qilindi. Bundan tashqari, sudga qadar ish yuritish davrida shaxs huquqlari buzilishining oldini olish maqsadida:

- *agar ushlangan ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmasa, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilish;*
- *tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va bunday undash oqibatida sodir etilgan jinoyat uchun uni ayblash. Bunda, tezkor-qidiruv tadbirlari natijalari faqat ular qonun talablariga asosan olingan va shaxsda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari yoki tezkor tadbirda ishtirok etgan boshqa shaxslarning harakatlariga bog'liq bo'lmagan holda jinoyat sodir etish uchun shakllangan qasd mavjud bo'lgandagina sud hukmida dalil sifatida tan olinishi mumkin;*
- *shaxsni jinoyat ishida ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun real asoslar mavjud bo'lgan hollarda uni guvoh tariqasida so'roq qilish, shuningdek, protsessual huquqlarini tushuntirmasdan turib, undan biron-bir yozma yoki og'zaki ko'rsatuvlar olish kabi holatlar taqiqlanmoqda va bu amalga oshirilayotgan ishlar maqsadga muvofiq deb o'ylayman.*

Shu bilan bir qatorda, agar sud tergov vaqtida sudlanuvchining unga ilgari ayblov qo'yilmagan jinoyatni sodir etganligini ko'rsatuvchi holatlar aniqlansa, sudlanuvchini yangi ayblov bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortish asoslarini aniqlash haqida iltimosnomani sudga kiritish huquqini ish bo'yicha barcha taraflarga berish tartibi o'rnatildi. Ta'kidlanishicha, aybiga iqrorlik bo'yicha kelishuv instituti ham kiritiladi. Unga ko'ra, ayrim toifadagi jinoyatlar bo'yicha shaxs aybini bo'yniga olish to'g'risida arz qilgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan, jinoyatning ochilishiga faol yordam bergan, shuningdek, keltirilgan zararni bartaraf etgan taqdirda unga nisbatan qonunda belgilangan eng ko'p jazoning yarmidan ko'p bo'lmagan miqdori va muddatigacha jazo tayinlanadi.

Jumladan, jinoyat prosessida fuqaroviy da'vo institutining mavjud bo'lishi jinoyat prosessual ish yurituvchi vazifalari va tamoyillariga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmaydi. Aksincha, ushbu institutning mavjud bo'lishi jinoyat natijasida jabrlangan shaxslar huquqini himoya qilish kafolatlarini qo'shimcha chora tadbirlaridan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi JPK 1995 yildan hozirgi kunga qadar bir qator o'zgartish va qo'shimchalarni inobatga olgan holda tahlil qilganimizda, u yerda qonun ijodkorlari tomonidan qo'llanilgan bir-biriga yaqin quyidagi so'z birikmalarini uchratishimiz mumkin. 1) mulkiy ziyon; 2) moddiy ziyon; 3) mulkiy zarar; 4) ma'naviy ziyon.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Ma'naviy zararni qoplash haqidagi qonunlarni qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, Jinoyat protsessual kodeksining 57-moddasiga muvofiq, jabrlanuvchi, ya'ni jinoyat tufayli ma'naviy zarar ko'rgan shaxs, jinoyat ishi yuritilishi jarayonida ma'naviy zararni qoplash haqida fuqarolik da'vosini qo'zg'ash huquqiga ega. Agar jinoyat ishi ko'rilyotganda ma'naviy zararni qoplash haqidagi da'vo arz qilinmagan yoki hal etilmagan bo'lsa, FPKning 245-moddasiga muvofiq bunday da'vo fuqarolik ishi yuritish tartibida ko'rilishi mumkin. Ma'naviy zararni qoplash nomoddiy boyliklarni va nomulkiy huquqlarni himoya qilishning birdan-bir manbai hisoblanadi. Shunga ko'ra FKning 163-moddasi 1-qismiga muvofiq ma'naviy zararni undirish haqidagi talablarga da'vo muddati joriy qilinmaydi. Ma'naviy va jismoniy azoblarni qoplash haqidagi da'vo arizalarini qabul qilish va ishlarni ko'rishda, ma'naviy zarar pul bilan qoplasa-da, nomulkiy zarar ekanligini hisobga olish lozim. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 3-noyabrdagi "Davlat boji stavkalari haqida"gi 533-sonli qarori 1-moddasining "d" bandiga binoan mulkka oid bo'lmagan da'vo arizalaridan davlat boji undiriladi. Vazirlar Mahkamasining "Davlat boji stavkalari haqida"gi 533-sonli qarori 1-moddasining "d" bandiga ko'ra, mulkka oid bo'lmagan tusdagi (yoki baholanmaydigan) boshqa da'vo arizalaridan - eng kam ish haqining 50 foizi miqdorida davlat boji undiriladi. 2012-yil 29-noyabr sanasi bilan O'zbekiston Respublikasida eng kam oylik ish haqi 79 590 so'm, demak, ma'naviy zararni undirish to'g'risidagi da'vo arizasi uchun 39 795 so'm davlat boji undiriladi. Fuqarolik kodeksining 1022-moddasiga ko'ra, ma'naviy zarar pul bilan qoplanadi. Ma'naviy zararni qoplash miqdori jabrlanuvchiga

yetkazilgan jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyatiga, shuningdek, ayb tovon to'lashga asos bo'lgan hollarda zarar yetkazuvchining aybi darajasiga qarab sud tomonidan aniqlanadi. Zararni qoplash miqdorini aniqlashda oqilonalik va adolatlilik talablari e'tiborga olinishi lozim. Jismoniy va ma'naviy azoblarning xususiyati ma'naviy zarar yetkazilgan haqiqiy holatlar va jabrlanuvchining shaxsiy xususiyatlari hisobga olingan holda sud tomonidan baholanadi. Ma'naviy zarar uchun to'lov yetkazilgan mulkiy zarardan alohida hisoblanadi.

Ma'naviy zararining miqdorini sudlar hal qiladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 25-moddasi 2-bandiga ko'ra, qasddan sodir etiladigan jinoyat boshlanib, shaxsga bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra oxiriga yetkazilmagan bo'lsa, jinoyat sodir etishga suiqasd deb topiladi. Jinoyatga tayyorgarlik ko'rganlik va jinoyat sodir etishga suiqasd qilganlik uchun javobgarlik ham Jinoyat kodeksining Maxsus qismining tamom bo'lgan jinoyat uchun javobgarlikni belgilovchi moddasiga muvofiq hal qilinadi. Shu o'rinda, jinoyat sudida fuqaroviy da'vo masalalarini hal qilinishining quyidagi afzalliklarini keltirib o'tsak: 1) Jinoyat ishlarini yuritish davrida fuqaroviy da'voni qondirish masalasini hal qilishda fuqaroviy da'vogardan boj undirilmaydi; 2) Jinoyat ishlarini yuritishda fuqaroviy da'vo masalasini jinoyat ishi bilan birga hal qilinishi kelgusida mulkiy ziyon ko'rgan shaxslarni ortiqcha sarf xarajatdan, sarson-sargardonlikdan va kelgusida fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga murojaat qilinishini oldini oladi; 3) Bir tomondan jinoyat prosessida fuqaroviy da'vo bu – komplekslashgan jinoyat-prosessual huquqiy institut hisoblanadi va bu o'zida jinoyat sudlov ish yurituvda jinoiy mulkiy oqibatlar yuzasidan va o'zida jinoyat va fuqarolik prosessida fuqaroviy huquqiy munosabatlarning birligi asosida fuqarolik prosessual tartibga solish metodlarining elementlaridir va bu ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normalar majmuidir. Boshqa tomondan esa bu - jinoiy ish yurituvda fuqaroning yoki yuridik shaxslarning ayblanuvchiga yoki ayblanuvchining harakatlari uchun mulkiy javobgarlikni o'z zimmasiga olgan shaxslarga jinoyat oqibatida yetkazilgan mulkiy va ma'naviy zararni qoplash haqidagi talabidir desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yetkazilgan ma'naviy va jismoniy azoblar uchun zarar undirish imkoniyati qonun hujjatida to'g'ridan to'g'ri ko'rsatilmaganligi hamma vaqt ham jabrlanuvchi ma'naviy zarar undirishga huquqi yo'q degan xulosani bildirmaydi. Fuqarolik kodeksining 989-moddasi 1-qismiga muvofiq yuridik shaxs yoxud fuqaro o'z xodimi mehnat (xizmat, lavozim) majburiyatlarini bajarib turgan vaqtida yetkazilgan zararni qoplaydi. Ma'naviy zararining miqdorini belgilashda sudlar jabrlanuvchining unga yetkazilgan ma'naviy zararining og'irligiga bergan subyektiv bahosini, shuningdek da'vogarga yetkazilgan ma'naviy va jismoniy azoblarning darajasini ko'rsatuvchi obyektiv ma'lumotlarni, tajovuz qilingan obyektning hayot uchun muhimligi, foydasi (hayoti, sog'lig'i, qadr-qimmati, shaxsiy erkinligi, uy-joyning daxlsizligi, katta qimmatlikka ega bo'lgan mulklari va boshqalar), huquqbuzarlikning og'irligi va oqibati (yaqin qarindoshlarining o'ldirilishi, nogironlikka olib kelgan tan jarohati yetkazilishi, ozodlikdan mahrum qilish, ishdan yoki turar joydan va boshqalardan mahrum qilish), uyaltiradigan noto'g'ri ma'lumotlarning xarakteri va ularni qanchalik darajada (doirada) tarqatilganligi, jabrlanuvchining yashash sharoitlari, shaxsiy xususiyatlari (xizmati, oilaviy, maishiy, moddiy tomonlari, sog'lig'ining holati, yoshi va boshqalar), zarar yetkazuvchining va jabrlanuvchining ayb darajalari, zarar yetkazuvchi shaxsning moddiy ahvoli va boshqa e'tiborga molik holatlarni hisobga olishlari lozim. Bundan kelib chiqib, ma'naviy zararni qoplash miqdorini yetkazilgan mulkiy va boshqa moddiy zararni undirish da'vo talabining qoplanish hajmiga qarab belgilash mumkin emas. Zararni qoplash miqdorini belgilashda adolatlilik va oqilonalik talablari inobatga olinishi kerak

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining jinoyat prosessi. Darslik / B.A. Mirenskiy, A.X. Raxmonkulov, va boshq. –T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining nashirlik markazi. 2004. – 514 b.
2. Fayziyev Sh.F. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti va uni takomillashtirish muammolari. // Davlat va huquq. №5-son. 2006. - B.32-35.
3. Fayziyev Sh. F. Jinoyat prosessida surishtiruv. Ilmiy-amaliy qo'llanma. / Yuridik fanlari doktori B.H. Po'latovning umumiy tahriri ostida. - T.: TDYuI nashriyoti, 2006. - 29 b.
4. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2012.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2012.

6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi. - Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2012.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy muxofaza kilishni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.T.2012 yil, 2 avgust
8. Интернет веб манзили: <http://www.justbel.info/2005-10/art12.htm>
9. Фомченков А. Компенсация морального вреда, причиненного преступлением. // Законность. — Москва, 2005. — № 6. Интернет манзили:<http://subscribe.ru/archive/law.trudpravo/200610/29050535.htm>